

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
<b>U.N.Olimov</b>	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi .....	336
<b>M.Q.Tolibboev</b>	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analariga doir mulohazalar .....	340
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
<b>Sh.N.Jo'rayev</b>	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
<b>D.G'.Mirzayev</b>	
"Turkiston viloyatining gazetasি" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili .....	361
<b>A.O.Tairov</b>	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
<b>P.A.Nabihev</b>	
"Farg'on'a vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" .....	373
<b>A.A.Mamadjanov</b>	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik mакtabining ilk vakili.....	378
<b>P.A.Arslonzoda</b>	
Tasвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айнӣ .....	382

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir .....	389
<b>Z.J.Pardayeva</b>	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman .....	393
<b>H.Jo'rayev</b>	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
<b>K.A.Jamahmatov</b>	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi .....	404
<b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi .....	410
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinnmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	413
<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....	417
<b>M.Islomova</b>	
Taqlid va Tasvir .....	421
<b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>	
Isajon Sulton hikoyalarida shamol timsoli .....	424
<b>X.T.Mirzaev</b>	
Talқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Ғиёсиддин .....	428
<b>N.Q.Bo'riyeva</b>	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
<b>G.A.Mashrapova</b>	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
<b>Q.V.Yo'lichiyev</b>	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili .....	449
<b>B.N.Isakova</b>	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....	456



УО'К: 392.13

**TOTEM TUSHUNCHALARNING IJTIMOIY TAFAKKUR TARIXIDAGI O'RNI****ЗНАЧЕНИЕ ТОТЕМА В ИСТОРИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ****THE PLACE OF TOTEM CONCEPTS IN THE HISTORY OF SOCIAL THOUGHT****Jo'rarev Habibillo**

Farg'onan davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori

**Annotatsiya**

Maqolada bo'ri obrazining jahon xalqlari tasavvuridagi totemistik xususiyatlari haqida so'z boradi. Bu obrazning mushtarak va umumiylar xususiyatlari tahlilga tortilgan. Totemizm odamning ko'pincha bir hayvon yoki o'simlik, ba'zan jonsiz narsa yoki tabiat hodisalari bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch-e'tiqoddan kelib chiqqan. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek urug'larining ota-bobolari quyosh, suv, olovga topinganlar, keyinchalik esa ot, ho'kiz, ilon, bo'ri, it va boshqa hayvonlarga e'tiqod qo'yiganliklari yoritilgan. Biz buni birligina bo'ri timsolida ko'rib o'tdik.

**Аннотация**

В статье говорится о тотемистических особенностях образа волка в воображении народов мира. Анализируются общие черты этого образа. Тотемизм берет свое начало от убеждения, что человек часто ассоциируется с животным или растением, иногда с неодушевленным предметом или явлением природы. Выясняется, что предки тюркских народов, в том числе узбекских родов, поклонялись солнцу, воде и огню, а позже верили в лошадей, волов, змей, волков, собак и других животных. Мы видели это в образе одиночного волка

**Abstract**

The article talks about the totemistic features of the image of the wolf in the imagination of the peoples of the world. Common and general features of this image are analyzed. Totemism originates from the belief that a person is often associated with an animal or plant, sometimes with an inanimate object or natural phenomena. It is explained that the ancestors of the Turkic peoples, including the Uzbek clans, worshiped the sun, water, and fire, and later they believed in horses, oxen, snakes, wolves, dogs, and other animals. We saw this in the form of a lone wolf

**Kalit so'zlar.** Obraz, totem, mifologik tasavvur, an'ana, o'ziga xoslik, mushtaraklik, g'oya.

**Ключевые слова.** Образ, тотем, мифологический образ, традиция, идентичность, общность, идея.

**Key words.** Image, totem, mythological image, tradition, identity, commonality, idea.

**KIRISH**

Totem deganda biz dunyodagi turli xalqlar hozirgi paytgacha o'zlariga homiy deb bilgan hayvon yoki jonivorlarni tushunamiz Jumladan burgut, sher, yo'lbars, bo'ri, ilonga nisbatan totemistik tushuncha va tasavvurlar dunyoning ko'plab xalqlari turmushida alohida o'rinn egallagan. Agar kimdir safar vaqtida oq tuyani, burgutni yoki bo'rini uchratsa, bu unga omad olib kelishiga ishongan. Hatto bu hayvonlarni tushda ko'rishni ham yaxshilikka yo'yanlar. Ma'lum bo'ladiki, totemizm belgisi jumladan, o'zbek xalqining ham maishiy hayotida shu paytgacha o'z ta'siriga ega.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Turkiy xalqlar folklori bilan urf-odatlarida izlari saqlanib qolgan totemistik qarashlar qadimiy tasavvurlar sistemasini tashkil etadi. Ma'lumki, ibridoiy inson o'ziga noma'lum bo'lib ko'ringan tabiat kuchlaridan talvasaga tushar ekan, ayni paytda ularni yengishga harakat qilgan. Buning uddasidan chiqa olmay, ilojsiz qolish tabiatga sig'inish, notabiyy ko'ringan hodisalarga topinish, ularni madaniyat darajasiga ko'tarishga olib kelgan. Bu hol tabiat va jamiyat hodisalariga qarashda g'ayri ilmiy (ibridoiy inson nazarida haqiqiy) animistik va totemistik tasavvurlarni tug'dirgan.

Totemizm odamning ko'pincha bir hayvon yoki o'simlik, ba'zan jonsiz narsa yoki tabiat hodisalari bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch-e'tiqoddan kelib chiqqan. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek urug'larining ota-bobolari quyosh, suv, olovga topinganlar, keyinchalik esa ot, ho'kiz, ilon, bo'ri, it va boshqa hayvonlarga e'tiqod qo'yiganlar. Bo'rini balo, ofatlardan saqlovchi, himoya

qiluvchi kuch, urug' kabilarning ajdodlari deb bilganlar. Hozirgi paytda ham ayrim kishilar tomonidan bo'rining tishi yoki tirnog'ini balo-ofatlardan saqlovchi tumor sifatida olib yurilishi ana shunday ibtidoiy tasavvurlarning aks-sadosi deyish mumkin. Ayni kunlarda ham bo'ri obraziga hadik bilan qarash, uni o'z nomi bilan emas, "qashqir" deb atash ham (ilmiy muomalada bu hol evfemizm deyiladi) shular jumlasidandir. Yoki "Bo'rini eslasang, qulog'i ko'rinati" iborasida ham ibtidoiy odamning bu yirtqichdan hamisha xavotirda yashaganligidan darak beradi. Shu tariqa totemlar yuzaga kelgan. Totem – u yoki bu urug'ning e'tiqod qo'ygan himoyachisidir. Totemlar bilan bog'liq bo'lган bir qancha afsonalar ham mavjudki, ularda, asosan, ot va bo'ri totemi haqida hikoya qilingan.

Bo'ri ayrim qadimgi o'zbek urug'lari orasida totem hisoblangan. Qadimiy manbalarda keltirilgan turkiy xalqlarga mansub afsonalarda bo'ri turk urug'ining ajdodi sifatida namoyon bo'ladi. Afsonada tasvirlanishicha, qadimgi turklar ona bo'ridan va dushman tomonidan qirilgan urug' ichida tirik qolgan o'n yoshli o'g'il boladan tarqalgan. Bu bolani ona bo'ri qo'l-oyoqlari qirqilgan holda topib olgan va uni go'sht berib boqqan. Shundan so'ng tog'larning biriga kirib ketgan va u yerda o'nta bola tuqqan. Ularning har biri turk urug'larining asoschilari bo'lган. Hatto Ashina ismli turk urug'larining birida bo'ri kallasi tasvirlangan bayroq ham bo'lган.

Birgina turkiy xalqlar emas, balki Yer kurrasining turli qit'alarida yashaydigan xalqlar yashash sharoitiga qarab turli predmet, hayvonlar va qushlarni o'zlariga homiy deb bilganlar. Hatto hozir ham bayroqlariga, gerblariga ularning suratini ramz sifatida qabul qilganlar.

#### NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekistonning Qashqadaryo viloyatida farzandlar hayotdan bevaqt ko'z yumaversa, oila boshlig'i toqqa chiqib, bo'ri ovlagan. Bo'rini o'ldirib, uning kesilgan lunjiga yangi tug'ilgan chaqaloqni yotqizishgan, terisini yo'rgakning tagiga solishgan, tishlari va tirnog'ini beshikka o'yinchoq sifatida osib qo'yishgan. Bu bilan yangi tug'ilgan go'dakka bo'rining homiylik va himoyachilik qilishi belgilangan. Shunday qilib, bo'ri go'dakni turli ins-jinslardan hamisha asraguvchi homiya aylangan. Bolaga esa Bo'riboy, Gurkiboy, Bo'ritosh, Bo'rixon singari ismlar qo'yilgan. Buni qarangki, aksariyat hollarda aynan ana shu e'tiqod bilan tarbiyalangan farzand keyinchalik uzoq umr ko'rgan. Bu hollarning qanchalik hayot haqiqatiga mos kelishini hozirgi zamon ilmi ham izohlay olmaydi. [1.24].

Bo'ri haqidagi bunday miflar nafaqat bizning madaniyatimiz tarixida mavjud, balki shimoliy Yevroosiyo hamda Shimoliy Amerika mifologiyasida ham uchrab turadi. Bo'ri tabiatiga xos asosiy belgi bu uning yirtqichligidir. Demak u xavf-xatar va halokat bilan bog'liqdir. Bo'ri bir tomonidan jangchining, ikkinchi tomonidan iblisning ramzi hisoblangan. Zamonaviy hayotdagagi ayrim tushuncha va ixloslarga ko'ra, bo'ri taraqqiyot va rivojlanish belgisidir.

Bo'ri, shuningdek, yevroosiyo dashtida ham, shimoliy Amerika tekisligida ham ko'chmanchi xalqlarning madaniyati va diniy e'tiqodlarida katta o'ringa egadir. Mahalliy Amerika madaniyatida, xususan, Norselar xalq og'zaki ijodida bo'ri obrazi sehr-jodu bilan bog'liq bo'lган. Shunga yaqin holda, Navaxo qabilasi vakillari bo'ridan jodugar sifatida qo'rishgan. Yana bir tushunchaga ko'ra, bo'rilar bilan yuzma-yuz kelish kasallik va o'limga olib kelishi mumkin. Navajo madaniyatida ham jodugarlar bo'ri tusiga kirib oladi, degan qarashlar bor. [3.123]

Bunday totemistik yoki mifologik qarashlar qadimi Sharq xalqlari uchun ham begona emas. Qora bo'rilar haqidagi dastlabki ma'lumotlar bobil eposi hisoblangan "Gilgamish" dostonida uchraydi. Unga ko'ra Ishtar degan ma'buda bir cho'ponga qilgan sevgi izhoriga rad javobini olgach, uni bo'rige aylantiradi. [4.46-47]

Mavzuga aloqador Boltiqbo'yi afsonasi Litva poytaxti Vilnyusning tashkil topishi, buyuk knyaz Gediminas shahar yaqinidagi tepalik yonida uvillagan temir bo'rini orzu qilishidan boshlanadi. Litva ma'budasi Mediana chiroyli va yaxshi ovchi bo'lishiga qaramasdan, turmush qurishni istamagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, uning surati yovvoyi tabiatidan kelib chiqib, bo'rilar galasi orasida, bo'ri qiyofasida tasvirlangan.

Nemis mifologiyasiga ko'ra esa, qadimda uchta yirtqich bo'ri bo'lган. ulardan biri Loki va Angrbodaning to'ng'ich o'g'li bo'lган bo'lsa, qolgan ikkisi Asir va Fenrisulfrning bolalari Skol va Xati bo'lган. Fenrir xudolar tomonidan qoziqqa bog'lab qo'yilgan. Rangranok davrida u juda ham katta bo'lib ketgan. U shunchalik bahaybat bo'lib ketganki, yuqori jag'i osmonga, pastki qismi yerga

## ADABIYOTSHUNOSLIK

tegardi. Uni Odinning o'g'li Vidar o'ldiradi, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Vidar uning yuragiga pichoq sanchadi va jag'larini burdalab tashlaydi. [2.81]

Bo'ri obrazni Norvegiyaning qadimiy xalqlari uchun ham salbiy va ijobjiy hususiyatlarga egadir. Ularning fikricha, bo'rilar betartiblik va halokat ma'nosida (masalan, Fenrir, Skoll va Xati) bo'lsa, ikkinchi tomondan jasorat, himoya, sadoqat, donolikni ham aks ettiradi. "Xervarar" dostonida shoh Hendrekdan Gestumblindi so'raydi. Bu chiroq odamlarni yoritib turadi, ammo alanga uni qamrab oladi va har doimgidek uni ushlab turuvchi chiroq nima degan savolga Hendrek bu quyosh ekanligini quyidagicha tushuntiradi: U har bir yerni yoritadi va hamma odamlarga nur sochadi. Skoll va Xatti jangovarligi ta'kidlanadi. Ular bo'rilar edi. Tasavvurlarga ko'ra, ularning biri quyosh oldida, ikkinchisi oydan keyin yuradi. Bundan tashqari "wolf" yoki "vulf" so'zi nemis familiyalari yoki ismlar sifatida keng tarqalgan. Misol tariqasida Volgan ismini olaylik. Ushbu ism ikki so'zdan kelib chiqqan. Uolf+gang ( ma'nosi: yo'l + sayohat.) Adolf esa qadimiy nemis ismlaridan biri bo'lib, "Athalwolf"ning zamonaviy ko'rinishidir. Athal yoki adal so'zining ma'nosi zodagon deganidir. Rudolf so'zi ham ikki so'zdan tashkil topgan: Rod va Hob. Ma'nosi "mashhur", olf esa bo'ri deganidir.

Yunon mifologiyasida bo'rilar quyosh hudosi Apollo bilan bog'langan. [5.292] Arkadiyada joylashgan Laykaion tog'ida Zevs qurbongohi joylashgan. Zevs shu tog'da tug'ilgan va ulg'aygan. Bu tog' Pelasgus va uning o'g'li uyi hisoblangan va ular Zevs marosimiga asos solishgan. Dastlab insonlar qurbanlik qilingan. Vaqtlar o'tgach esa bo'rirlarni qurban qila boshlaganlar. Ushbu muqaddas tog' har to'rt yilda bir marotaba o'tkaziladigan sport musobaqalariga mezbonlik qilgan. Sudanning so'zlariga ko'ra Peistratosning qo'riqchilari "bo'ri oyoqlari" deb atalgan, chunki ular oyoqlarini sovuqqa oldirmaslik uchun bo'ri terilari bilan o'rab yurishgan. Bundan tashqari ularning qalqonlaridan bo'ri surati ramz sifatida o'rinni olgan.[ 5.812]

## XULOSA

Shu tariqa, dunyo xalqlarining ibtidoiy davrlardagi tasavvur va tushunchalarida mushtaraklik, uyg'unlik, o'xshashlik jihatlari yuzaga kelgan. Turmush tarzidagi, madaniy saviyadagi, bilim darajasidagi bir xilliklar ana shu holatni keltirib chiqargan.

Ko'rinaridiki, qadimiy xalqlar o'z ajdodlari - totemlarni belgilashda mushtarak va o'xshash xususiyatlarni nazarda tutganlar. Biz buni birgina bo'ri timsolida ko'rib o'tdik. O'ylaymizki, turli xalqlarning ibtidoiy-mifologik tasavvurlarida, badiiy san'at namunalarida, maishiy va ijtimoiy-siyosiy turmushlarida totem tushunchalarning akslanishi alohida tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Madayev O. , Sobitov T. Xalq og'zaki ijodi poetikasi. Toshkent. 2010
2. Pliny the Elder History Naturalist
3. Lopez. 1978.
4. Marvin. 2012.
5. Mech& Boitani. 2003